

Mavzu: Gapning chegarasini aniqlash

Aa *Pōlat otim ğuw etdi,
Tazoga uchib ketdi.*

samolyot



Samolyot – havo transport turlaridan biri.


Zamonaviy samolyotlar bortiga besh yuztagacha yo'lovchini sig'dira oladi. Samolyotga chiqish va undan tushish uchun ishlatiladigan zina **trap**, samolyotning oynasi esa **illuminator** deb ataladi.

Yo'lovchi samolyotlar nafaqat odamlarni, balki yuklarni ham tashiydi.



1-mashq. Toping, qaysi qatordagi so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi?

1. Olmaxonlar, qidirdi, o'z, bo'yoqlar, rangini, ichidan
 2. Daraxtlar, tusga, kuzda, oltin, kirdi
 3. Musavvir, bilan, bo'yoqlar, ishladi
 4. Qushlar, o'lkalarga, issiq, uchib
- Tuzgan gaplaringizning tinish belgilarini aniqlang.





2-mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Matnga sarlavha qo'yib, ko'chiring.

Varrak – bolalar sevib o'ynaydigan o'yinchoq u qog'oz va cho'pdan yasaladi varrak ipga bog'lanib, osmonga uchiriladi shamol esganda u baland ko'tariladi bolalar varrak uchirib zavqlanadilar rangli varraklar osmonda juda chiroyli ko'rinadi



Og'zaki nutqda gaplar qisqa to'xtash (**pauza**), ohang va talaffuz yordamida ajratiladi.


Yozma nutqda bitta gap ikkinchi gapdan nuqta (.), so'roq (?) yoki undov belgisi (!) bilan ajratiladi. Vergul (,) eng qisqa to'xtash (**pauza**)ni bildiradi.

Masalan: Gulzorda oq, qizil, pushti gullar ko'p.



3-mashq. Vergulni to'g'ri qo'llab, gaplarni ko'chiring.

1. Akmal Nigora darsni diqqat bilan kuzatishdi.
2. Bolalar maydonda quvlashmachoq bekinmachoq o'ynadilar.
3. Tasviriy san'at darsida qalamlar bo'yoqlar ishlatdik.
4. Kuzda daraxtlar qizil olovrang tusga kiradi.





4-mashq. Savollarga mos javoblarni tanlang.

- 1 Samolyotni boshqaradigan inson kim deb ataladi?
- 2 Samolyotlarning havoga ko'tarilish va qo'nish joyi nima deb ataladi?
- 3 Samolyotning havoda muvozanat ushlab turishiga uning qaysi qismi yordam beradi?
- 4 Samolyot ichida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi xodim kim?
- 5 Samolyot qaysi transport turiga kiradi?

aeroport

qanotlari

uchuvchi

bort kuzatuvchisi

havo transporti



5-mashq. Ko'chiring. Ohangdosh so'zlarning tagiga chizing.

Tog'-u dalada,
Ushbu pallada
Ish qizir hanuz,
Qay fasl bu? Kuz!

Bulut¹ osmonda,
Hosil xirmonda.
Ko'rsatmoqda yuz,
Qay fasl bu? Kuz!

Kavsar Turdiyeva

- She'rni ifodali o'qing.

